



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xursanova Zilola
Mirzaxolmatovna

Farg'ona davat universiteti o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Tafakkur boshqa psixik jarayonlardan, unda qandaydir muammoli vaziyat mavjudligini ta'kidlaydi, uni hal qilib, qaysi bir kishining hissiy tajribadan chalg'itishi va muayyan amaliy yoki nazariy xulosalar chiqarishiga, bilim chegaralarini kengaytirishga qaror qilish xususiyatlari bilan farq qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy tafakkur, masala, xulosa, tasdiq.

Jahon ta'lif muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilari qobiliyatini rivojlantirishning didaktik, kreativ, integrativ, ijodiy, kasbiy bilimlardan samarali foydalanish modullari va texnologiyalari ta'lif jarayoniga tatbiq etilmoqda. Xalqaro UNESCO, UNICEF tashkilotlari tomonidan 2030 yilgacha qabul qilingan ta'lif konsepsiyasida «ta'lif taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat» sifatida e'tirof etilib, sifatli ta'lif berish, o'zlashtirish natijalarini baholash usullarini takomillashtirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning samarali usullaridan foydalanish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda ham matematika ta'lifi va u orqali ilm oluvchilarning bilish faoligini oshirish 2020 yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi va matematika ta'lifini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son,



2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sod Farmonlari, mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga e’tibor qaratilgan.

Respublikamizda umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari uchun adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, professional ta’limni tatbiq etish, qo‘shma ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkillashtirishning meyoriy asoslari yaratildi va moddiy-texnik bazasi takomillashtirilmoqda. «Yoshlarni jismonan, ruhan va aqlan sog‘lom, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai-nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish»[1:2] ustuvor vazifalar etib belgilangan. Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning tizimli-funksional modelini takomillashtirish, didaktik, texnologik integrativ topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilar mantiqiy tafakkurini rivojlantirish borasida yirik tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari kengaymoqda.

Ta’lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish masalalari B.S.Abdullayeva, A.A.Abduqodirov, D.N.Abduvaliyeva kabilar tomonidan tadqiq etilgan. MDH mamlakatlari olimlaridan G.Y.Alekseyeva, O.V.Alekseyeva, I.K.Amonov, I.N.Agafonova, I.A.Lipina, S.L.Rubinshteyn va boshqalar tafakkurning umumiy nazariyasi, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot olib borganlar.


Xorijiy davlatlarda fransuz pedagog-psixologi T.Ribo, Shveystsariya faylasuf-psixologi J.Piaje, Avstriya pedagog-psixologi Z.Freyd, amerikalik pedagog-psixologlar P.Torrens, J.Bruner va boshqa tadqiqotchilar mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning metodik ta’minotini yaratish masalalariga oid tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Tahillardan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik jihatlari va muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda uning uzlusizligini ta’minalash hamda boshlang‘ich ta’limning yangi shakllarini o‘zlashtirish orqali ularning bandligini ta’minalash mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Tafakkur boshqa psixik jarayonlardan, unda qandaydir muammoli vaziyat mavjudligini ta’kidlaydi, uni hal qilib, qaysi bir kishining hissiy tajribadan chalg‘itishi va muayyan amaliy yoki nazariy xulosalar chiqarishiga, bilim chegaralarini kengaytirishga qaror qilish xususiyatlari bilan farq qiladi. Tafakkur ko‘pincha ijtimoiy amaliyotning tarixiy rivojlanish mahsuli, inson faoliyatining alohida nazariy shakli sifatida qaraladi.

Ma'lumki, bolalar tabiatan qiziquvchan va o‘rganish istagiga to‘la bolishadi. Ammo har bir bola o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun o‘qituvchining oqilona rahbarligi zarur. Ko‘pincha biz boshlang‘ich maktabda muvaffaqiyatli o‘qiyotgan o‘quvchilarimiz o‘rtta va o‘rtta maktabda "yiqilib", orqada qolishlarini kuzatamiz. Nima uchun bu sodir bo‘ladi? Bu mustaqil ishslash qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, muammolarni ijodiy hal qilish, oqilona yechimlarni topish qobiliyatidir.

Masalan. Matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan vazifalar sifatida quyidagi masalalardan foydalanish mumkin:



Javob: qo‘ziqorin orqasida qanday raqam yashiringanligini bilish uchun "10-3" misollarni tahrir qilamiz. Javob 7. "7+1" misolini tahrir qilib, yulduzcha orqasida yashiringan raqamni bilib olamiz; bu 8.

Nima o‘zgardi?

qarab masalani toping.

$\text{apple} + \text{banana} + \text{watermelon} = 24$

$\text{banana} + \text{watermelon} = 14 + \text{apple}$

$\text{apple} + \text{banana} = \text{watermelon}$

$2 \times \text{watermelon} - 2 \times \text{apple} = ?$

1. Daraxtning 4 ta shoxi bor, xar bir shoxida yana 4 tadan shoxchalari bor, bu shoxchalar xam yana 4 tadan mayda shoxchalarga bulingan va ularni xar birida bittadan olma bor, barcha olmalar sonini xisoblang.

Masalaning javobi: $4*4*4=64$

2. Sinfda 30 ta ukuvchi ukiydi. Ulardan 20 tasi rus tilini biladi. 18 tasi ingliz tilini biladi. Savol nechta xar ikkala tilni biladi?

Savolning javobi: 12 ta rus, 10 ta ingliz va 8 tasi ikkala tilni bilishadi.

3. Kulchalarni tarkatganda xar birimizga 1,5 tadan tugri keladi. Lekin oramizdan 1 kishi kulcha yemasa xar birimizga 2 tadan tugri keladi. Biz necha kishimiz?

Yechmi: $1,5*x = (x-1)*2$

$$2-2x=1,5x$$

$$0,5x=2$$

$$X=4$$

Javobi: 4 kishi va 6 ta kulcha bor



4. Guzalda 10 sum bor. Zeboda esa 15 sum bor. Ularning puli teng bulishi uchun Zebo Guzalga necha sum berishi kerak?

Javobi: $2,5 \text{ sum shunda } \frac{1}{2} \text{ sum } = 12,5 \text{ ga tenglashadi}$

5. Beshta 1 yordamida 100 sonini xosil kilish mumkinmi?

Yechish: $111-11=100$

Horijiy davlatlarda mantiqiy tafakkuri rivojlangan bolalarga ta'lim berishning tarkibiy tuzilmasi sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim tizimi – umumiy rivojlantirish xarakteridagi bolalar bog'chalari, "Bolalarni rivojlantirish markazlari", bunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratilgan.

2. Umumta'lim muassasalari tizimi – bunday ta'lim muassasalarida mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilarni individuallashtirish uchun shart-sharoit yaratilgan.

3. Qo'shimcha ta'lim tizimi – maktabdan tashqari faoliyat jarayonida mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

4. Maktablar tizimi – bunday ta'lim muassasalari mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilar bilan ishlashga yo'naltirilgan bo'lib, ana shunday bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish va imkoniyatlarini umumiy ta'lim olish jarayonida qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan. Bular sirasiga litseylar, gimnaziyalar va tipik bo'lмаган maktablar kiradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, uchinchi, to'rtinchchi yondashuvlar bugungi kunda yurtimiz bo'ylab keng tarqalgan. Chunki mazkur yondashuvlar mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilarning bilish va shaxsiy xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi. Qo'shimcha ta'lim mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Maktabdan tashqari birlashmalar o'quv dasturlari doirasida o'quvchilarning qiziqishlarini amaliyotga tatbiq etishga ko'maklashadi. Yuqorida fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy sharoitda pedagogika fani oldida turgan asosiy vazifa sifatida mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi PF-4947-sodan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami. – T., 2017. 6-sodan.

2. Kozubovskiy V. M. umumiy psixologiya: kognitiv jarayonlar: darslik / V. M. Kozubovskiy. - 3-nashr. - Minsk: Amalfeya, 2008 Yil. - 368 p. ISBN 978-985-441-668-7.

3. Kulagina I. yu., Kolutskiy V. N. yoshpsixologiyasi: insonrivojlanishiningto'liqhayotaylanishi. Oliyo'quvyurtlaritalabalariuchundarslik. - M.: "sfera" savdomarkazi, 2001 yil. - 464S. ISBN 5-89144-162-4

4. Leontiev A. N. fikrlashpsixologiyasi. O'quvchi.yu. B. Gippenreyter, V. V. Petuxova. - M: MOSKVA DAVLAT UNIVERSITETI, 1982 YIL

5. Mahpuza, A., Rahmatjonzoda, A., & Zilola, X. (2022). ATTITUDE TO MATHEMATICS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(11), 208-212.

6. Karimova, B. K., & Oripova, M. S. (2021). Formation of national pride based on hadiths in primary school children of houses of kindness. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 652-665.



7. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8547-8555.
8. Muhammadjonovna, U. N., Makhmutovna, T. H., & Kurbonovich, M. U. (2020). IMPROVING THE MECHANISM OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF A DEMOCRATIC AND LEGAL SOCIETY. *JCR*, 7(12), 3133-3139.
9. Mukhammedovna, U. N., & Oyturaxonovna, I. S. (2019). IMPROVING SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH IN UZBEKISTAN AS THE DEMOCRACY AND DEVELOPMENT OF LEGAL SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
10. O'ranova, N. M., & Yo'Ldosheva, D. A. Q. (2021). Oliy o 'quv yurti talabalarida kreativ kompetentlikni rivojlantirishda faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni va samarali yo'llari. *Science and Education*, 2(12), 755-766.
11. O'ranova, N. M., & Yo'Ldosheva, D. A. Q. (2022). OLIY O 'QUV YURTI TALABALARIDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA FAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA SAMARALI YO'LLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 97-105.
12. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 22(12), 127.
13. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *湖南大学学报(自然科学版)*, 48(8).
14. Urinova, N. M., & Abdullaeva, N. (2021). Opportunities to use project-based teaching technology in the development of students' research competence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2344-2348.
15. Urinova, N., & Abdullaeva, N. (2020). Opportunities for formulating research skills for higher education students. *Молодой ученый*, (11), 193-195.
16. Сиддиков, Б. С., & Джалаев, Б. Б. (2016). OBJECTIVES OF THE YOUTH ACTIVITY BY TEACHING TRAINING. *Учёный XXI века*, (6-2 (19)), 41-44.
17. Сиддиков, Б. С., & Джалаев, Б. Б. (2016). ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ. *Ученый XXI века*, (6-2).
18. Уринова, Н. М., & Байджанов, Б. Х. (2016). Социально-педагогические особенности подготовки будущих учителей к воспитательной работе. *Учёный XXI века*, (4-2 (17)), 21-24.
19. Шермухаммадов, Б. (2012). Использование различных методов, форм и средств в воспитании молодежи. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 80-83.